

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 37.04.373.2.37.041

**МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARING HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHIDA
O'YIN HAMDA O'YINCHOQNING AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ ИГРЫ И ИГРУШЕК В КОМПЛЕКСНОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНИКА**

**THE IMPORTANCE OF PLAY AND TOYS IN THE COMPREHENSIVE DEVELOPMENT
OF PRESCHOOL CHILDREN**

Axmedova Turg'unoy Sultonali qizi 

Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida o'yin va ular sevib o'ynaydigan o'yinchoqlarning ahamiyati ochib berilgan. O'yin bolalarning vaqtini shunchaki o'tkazish uchun emas, ularning rivojlanishida ahamiyati begiyos hisoblanadigan faoliyat turidir. Vaholanki, o'yinlar bolalarga faqat o'rgatuvchi bo'libgina qolmay, ulardagi aggressivlik, tajovuzkorlik istagi va energiyani chiqarib tashlashga ko'mak beradi.

Abstract

This article reveals the importance of play and the toys they love to play with in the development of preschool children. The game is not just to pass the time for children, it is a type of activity that is of inestimable importance in their development. However, games are not only educational for children, but also help to release their aggressiveness, aggression and energy.

Аннотация

В данной статье раскрывается значение игры и игрушек, с которыми они любят играть, в развитии детей дошкольного возраста. Игра – это не просто способ скоротать время для детей, это вид деятельности, имеющий неоценимое значение в их развитии. Однако игры не только развиваюют детей, но и помогают высвободить их агрессивность, агрессию и энергию.

Kalit so'zlar: o'yin, faoliyat, jismoniy rivojlanish, ruhiy rivojlanish, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, eng muhim qadam, tabiiy moddalar, mayda motorika

Key words: play, activity, physical development, mental development, social-emotional development, first step, natural substances, fine motor skills

Ключевые слова: игра, активность, физическое развитие, умственное развитие, социально-эмоциональное развитие, первый шаг, натуральные вещества, мелкая моторика

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatları asosan o'yin hisoblanadi. O'yin – bu bolaning eng jiddiy ishi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda ham jiddiy faoliyati hisoblangan o'yinlar, bir vaqtning o'zida ularning zavqlanish va o'rganish manbasi hisoblanadi. Dunyoning har bir burchagida bolalar o'yin o'ynaydilar, hatto bu o'yinlar har bir joyning o'z madaniyatiga ham aylangan. O'yinlarning tuzilishi, o'ziga xosligi, zamon o'zgargan sari o'yinchoqlar o'zgarsa-da, bolalar bor joyda, albatta, o'yinlar va o'yinchoqlar har doim bo'ladi. Tashqaridan nazar tashlasak, o'yinlar bolalar uchun shunchaki chalg'itish, ovutish va dam olish vositasidek taassurot uyg'otsada, aslida ularning hayotida jismoniy, ruhiy, lingvistik, ijtimoiy-hissiy rivojlanishlariga yordam beruvchi ahmiyatga ega. Hatto o'yinlar ba'zan kattalar uchun bekorga o'tkazilgan vaqt sifatida ko'rinsa ham aslida, bolalarning o'zini ko'rsatib, tuyg'ularini ifoda etib bera oladigan, iste'dodlarini rivojlantira oladigan va tasavvuridan foydalana biladigan muhim bir faoliyatdir.

Shu bilan birgalikda o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarga qidirish, kuzatish, yangi ko'nikmalar hosil qilish va ularni rivojlantirish, shuningdek, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmagan holda, istaganicha urinib ko'rish uchun imkon yaratib beradi. O'yin o'ynash davomida bolalar do'stlari bilan bo'lishish, yordam berish, ahil bo'lish, navbatni kutish, mas'uliyatni o'z bo'yniga olish,

ILMIY AXBOROT

qoidalarga rioya qilish, o'rtoqlarining huquqlarini hurmat qilish va o'z huquqlarini himoyalashni o'rganadilar. O'yin bolalarga qiyin vaziyatlarda, ularni yengib o'tishni o'rgatadi. Bolalar o'yinlar orqali hayotni o'rganadilar. O'yinlar faqatgina maktabgacha yoshdagi bolalar uchun emas, balki boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ham muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XIX asming ikkinchi yarmi - XX asrda Shvetsariya, Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida nemis pedagogi Fridrix Frebelning maktabgacha tarbiya nazariyasi keng ommalashdi. Pedagogika tarixida Frebelning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u maktabgacha tarbiya nazariyotchisi bo'lgani holda, maktabgacha pedagogikani mustaqil fan tarmog'iga ajratilishiga ko'maklashdi. Ayni paytda u ilk bor "bolalar bog'chasi" tushunchasini ham muomalaga kiritdi.

Frebel bolalarni tarbiyalashda o'yinga katta e'tibor berdi. Xuddi ish va darslar kabi o'yin ham bolaning ichki taqdirini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi kerak, - deb hisoblagan. O'yinlar bo'sh vaqtini behuda sarflamaydi, ular "bolaning rivojlanishidagi eng muhim qadam" bo'lib, ular o'qituvchilar tomonidan bolaning qanday rivojlanayotgani haqida maslahatlar sifatida kuzatilishi kerak. Frebel, ayniqsa, bolalar uchun o'yinchoqlarning rivojlanishiga qiziqgan va ularni u "sovg'alar" deb atagan.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Yaxshi yo'naltirilgan o'yin orqali o'rganishni rag'batlantirish uchun ishlab chiqilgan. Bu sovg'alar yoki o'yinchoqlar to'plar, globuslar, zarlar, slindrlar, yig'iladigan zarlar, yig'iladigan yog'och shakllari, buknanadigan qog'oz, qog'oz chiziqlari, tayoqchalar, bonchuklar va tugmalarni o'z ichiga olgan.

Maqsad shakl, rang, ajratish va assotsiatsiya, guruhlash, moslashtirish va hokazolarni ajratib turadigan elementar mulohazalarni rivojlantirish bo'lgan. O'qituvchining rahbarligida sovg'alar to'g'ri berilsa, ular bolaning tabiiy ichki birligini hamma narsaning birligi bilan bog'laydi (masalan, shar bolaga cheksiz uzluksizlik hissini beradi, silindr ham uzluksizlik, ham davomiylik hissini beradi. cheklash). Hatto aylanada o'tirish amaliyoti ham har bir shaxsning o'zida birlik bo'lsa-da, katta birlikning jonli qismi ekanligini anglatadi. Bola uning tabiatini aslida narsalarning katta tabiatini bilan birlashtirilganligini his qilishi kerak.

Olim olib borgan ishlarda "bolalar o'yini-bu turmush ko'zgusi va ichki olamning erkin namoyishi"dir. Frebel mayda motorika yordamida bolalar nutqini rivojlantirishni taklif qilgan. U ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish bosqichlarini batafsil ko'rsatib bergen hamda buyum bilan tanishishni uning nomini atashdan boshlash kerak, degan talabni ilgari surgan. Nemis pedagogining fikricha, turli materiallar bilan ko'plab mashqlar bajaruvchi bolalar boshqa bolalardan ancha avval so'zlay boshlaydi. Frebel xilma-xil bolalar faoliyat turlari va mashg'ulotlarni taklif etgan. Bular: mozaika, munchoqlar, cho'plar, qog'ozlar, bo'yoqlar bilan ishlash, rasm chizish, qog'ozdan to'qish, qog'ozni qirqish, loydan narsalar yasash. Origamiga katta e'tibor qaratilgan (ya'ni qaychidan foydalanmasdan turib, qog'ozdan shakllar yasash). Shuningdek, olimning bog'chasida arqonli o'yinlar, qum o'ynash, konstruksiylar yasash uзвиy mashg'ulotlar hisoblangan. Bular ijodiy qobiliyatni o'stirish, intellektni shakllantirish, dunyoni abstrakt holda qabul qila olish, noan'anaviy qarorlar qabul qilish layoqatini rivojlantirishga ko'maklashadi. O'yin jarayonida bolalar bilan suhbatlashish ham ko'zda tutilgan. Frebelning fikricha, suhbat mavzusi avvaldan tayyorlanib, bolaning faoliyat bilan shug'ullanish va boshqa bolalar bilan muloqot qilishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun, uni tengdoshlari jamoasida tarbiyalash kerak. Ushbu g'oyani u chuqur pedagogik asos bilan mustahkamladi va uni keng ommalashtirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirdi. Frebel jamoaviy tarbiyani insoniyat asosi deb bilgan. Shu sababli u bolani majburiy tartibda jamoaviy faoliyatga jalb qilish, ya'ni uning bolalar bog'chasiga qatnashi zarur, deb hisoblagan. U bolaning tanasini rivojlantirish zarur, tashqi hissiyot sezgilarini mashq qildirish, ularni odamlar va tabiat bilan tanishtirish kerak, deb hisoblagan.

O'yinlar bolalarga faqat o'rgatuvchi bo'libgina qolmay, ulardagi agressivlik, tajovuzkorlik istagi va energiyani chiqarib tashlashga ko'mak ham beradi. Ayniqsa, yugurish, sakrash, o'rmalash kabi jismoniy kuch talab qiluvchi o'yinlar, bolalarda nafas olish, hazm qilish va chiqarish tizimlarining muntazam faol ishlashini ta'minlab beradi. Tanadagi ortiqcha yog'larning yo'qotilishi, mushaklarning kuchli va chiniqqan bo'lishi, ichki bezlarning yanada to'g'ri ishlashi jismonan

sog'lom o'sishda juda muhim hisoblanadi. Shu tufayli ham bolalarga ochiq va toza havoda harakatli o'yinlarni o'ynashlari uchun vaqt va imkon yaratib berish lozim. Ochiq havoda o'ynaladigan o'yinlar bolalarga o'z tanalarini muuvozanatda ushslashlariga yordam berishi ham ahamiyatlidir. Ya'ni, to'g'ri yo'lda harakatlanish jarayonida yiqilib tushish holati kamayadi, zinapoyalardan chiqib-tushishda muvozatni ushlagan holda harakatlana oladilar.

Bolalarning sevimli o'yinlaridan hisoblanadigan suv, qum va loy kabi tabiiy moddalar bilan o'ynaladigan o'yinlar ularni hech qachon zeriktirmaydi. Qo'yib bersangiz, charchamasdan, hatto dam ham olmasdan soatlarcha o'ynaydilar. Tuproq bolalarning tanasida to'plangan energiyani o'ziga oladi, shuning uchun ham charchamaydilar. Bu o'yinlar ularga o'zgacha zavq va quvonch beradi.

Bola loydan, qumdan biror bir shakl yasash, chizish, bo'yash yoki kesish bilan shug'ullanib bir vaqtning o'zida, ham qo'l va barmoq mushaklarini (mayda motorika) ishlataadi, ham qo'llari bilan ko'zlarining harakatini bir-biriga muvofiqlashtiradi. Maktabgacha yoshdagagi bolalar o'yinlar orqali epchilligi rivojlantirilsa, boshlang'ich ta'lim-birinchi sinfga borishlari bilanoq qalam ushslash va yozishni tengdoshlariga nisbatan tezroq o'rganadilar.

NATIJA

3-6 yosh orasidagi davr bolalar hayotida "O'yin davri" deb ataladi. Bola bu yoshga yetgunga qadar turli narsalar va atrof-muhitga doir tajribalar o'tkazadilar (narsa-buyumlarni ushlab ko'radi, og'ziga solib ko'radi va h.k.). 3 yoshdan so'ng esa o'yin o'ynashni boshlaydilar. Lekin bu yoshda bolalarning ko'pchiligi do'stlari bilan birgalikda ahil bo'lib o'ynashda muammoga duch keladilar. Bolalarda birgalikda kelishib o'yin o'ynash holatlari 5-6 yosh atrofida kuzatila boshlaydi.

3-6 yoshdagagi bola kun bo'yi turli savollar beradi, ko'p gapiradi va charchoq nimaligini bilmay o'ynaydi. 3 yoshda savollar davri boshlanadi bolalarda. Hamma narsa haqida savol beradilar (bu nima?). Oilasi va atrofidagilardan umumiy qoidalarni o'rganganlardan so'ng, do'stlari bilan birgalikda o'ynashga odatlana boshlaydi.

4-5 yoshdagagi bolalar asosan, turmush va urush mavzusidagi xayoliy o'yinlarni o'ynashga qiziqadilar va ko'rgan filmlaridagi obrazlarga taqlid qilishadi. Qurish-yasashga doir o'ynchoqlardan turli binolar yasashadi. Ba'zi hollarda bu o'yin jihozlaridan boshqa maqsadlarda ham foydalanadilar.

5-6 yoshdagagi bolalar ko'proq stol ustida o'ynash mumkin hisoblangan o'yinlarni o'ynashga qiziqishadi. Kesib yopishtirish, rasm chizish, raqam va harflarni yozish, yasab buzish kabi o'yinlarni o'ynashni Afzal bilihadi.

XULOSA

Bola o'sib ulg'ayish davrida o'yin o'ynarkan, o'rgangan va o'rganayotgan tajribalarini yanada yuqori darajaga olib chiqadilar. Har bir harakatlarini avval o'ylab, tushunib olgandan so'ng bajaradilar.

Maktabgacha pedagogikada o'yin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'ladi. O'yin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqeiylikda o'zgarib turadi. O'yin – maqsadga qaratilgan o'ylangan jarayondir. O'yin jarayoni asosida o'quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko'p o'ynasa, maktabda yaxshi o'qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi. O'yin nazariyasining asosiy masalalari quyidagilardan iborat:

1. O'yinning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari;
2. O'yinning bola hayoti va tarbiyasidagi o'rni;
3. O'yinning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

O'yin - buyumli-predmetli va ijtimoiy voqeiylikda harakat qilish va uni anglashga yo'naltirilgan jarayondir. U o'zining kelib chiqishiga ko'ra, yo'nalish va mazmuniga ko'ra ijtimoiy voqeiylik hisoblanadi. O'yin, bu bola faoliyatining yorqin turi. Unda maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari natijaning mavjudligi uning o'ziga xosligidir. Xususiyatlarning orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi.

Hayotimizning har bir sohasiga kirib kelayotgan texnologiya, bola uchun sog'lom va tabiiy bo'lgan an'anaviy va milliy o'yinlarni anchayin ortda qoldiryabdi. Bugungi kunda bolalarda texnologik o'yinlarga nisbatan o'rganib qolish va qaramlik holatlari ko'p uchramoqda. Bunday texnologik bog'lanib qolishlik bolalarda ko'plab salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda: aqlan va

ILMIY AXBOROT

jismonan nogironlik, xatti-harakatlarini o'ziga bo'ysundira olmaslik, agressivlik kabi holatlar bolalar hayoti va ularning kelajagiga xavf solmoqda. Uyda, ochiq va toza havoda tengdoshlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan o'ynaladigan tabiiy, an'anaviy, milliy o'yinlarni o'ynash o'rniiga, "texnologik autizm" kasalligiga duchor bo'lyapdilar. Ya'ni, muloqot qura olmaslik, o'z fikrini ifoda eta olmaslik kabi muammolarni boshdan o'tkazmoqdalar. Shu bilan birga ko'p vaqt davomida televizor va kompyuter qarshisida o'tiradigan bolalarning suyaklarida jismoniy nuqsonlar yuzaga kelishi ko'p kuzatilmoqda. Va eng asosiysi hisoblanadigan "Bolalik"ni bor quvонch va zavqini bilmay kata bo'lyabdilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni. T.: 2017-y., 30-sentyabr
2. R.S.Salamov (2014) "Jismoni tarbiya nazariyasи va uslubiyati" (Darslik) 1 tom. – T.: "ITA-PRESS", 120.
3. T.N. Babayeva (2017) "Игра и Дошкольник Детство" Пресс
4. T.S.Usmonxo'jayev, P.X. Xo'jayev (1987) "1001 o'yin" T., *Meditina*.
5. Ali Chankirili (2023) "Men bilan o'ynaysizmi, ota" Tarjimon: Z. Rhmatova- T.: *Yangi asr avlod*.
6. T.S.Axmedova (2024) The impact of games on the development of pre-school children. *FarDU ilmiy xabarlar*, 2-son 416-419
7. T.S.Axmedova (2024) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat dasturidan foydalanish. *FarDU ilmiy xabarlar*, 3-son 403-406.